

## FALSAFIY QARASHLAR.RUMIYNING FALSAFIY QARASHLARI

**Toshmurodov Uchqunbek**

*Toshkent davlat stomatologiya instituti*

*Bolalar stomatologiya kafedrasida 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ko'pgina jamiyatlar falsafiy muammolarni ko'rib chiqishdi va boshqa jamiyatlar ishlari asosida o'z falsafiy an'alarini qurishdi. Masalan, Yaqin Sharq falsafasi G'arb falsafasi ta'siri ostida bo'ldi. Ularni bir-biriga tegishli metodlar bilan o'rgansa bo'ladi va ular orasida sezilarli umumiyliklar bor.*

**Kalit so'zlar:** *Sug'diyona, Avesto, moniy va mazdak, Bobil va Arab falsafasi, renessans davri, O'rta osiyo falsafasi.*

### QADIMGI SHARQ XALQLARINING ILK FALSAFIY QARASHLARI.

Sharq falsafasi atamasi bilan Osiyo qit'asida paydo bo'lgan falsafiy oqimlar, qarashlar majmuasi nomlanadi. Sharq falsafasiga hind, xitoy, fors, yapon, koreys hamda O'rta Osiyo falsafasi kiradi. Bu ro'yxatga ba'zan Bobil va Arab falsafasi ham kiritiladi, biroq bular g'arb falsafasiga ham taalluqlidirlar.

Ko'pgina jamiyatlar falsafiy muammolarni ko'rib chiqishdi va boshqa jamiyatlar ishlari asosida o'z falsafiy an'alarini qurishdi. Masalan, Yaqin Sharq falsafasi G'arb falsafasi ta'siri ostida bo'ldi. Rus (ba'zilar buni G'arb falsafasiga taalluqli, deb ko'rishadi), Yahudiy, Islomiy, Afrika va ba'zi Lotin Amerikasi falsafiy an'alarini G'arb falsafasidan ta'sirlanishdi; biroq, o'zlarining aslliklarini ham yo'qotishmadi. Bu an'alar orasidagi farqlar xush ko'rilgan tarixiy faylasuflar, g'oyalar, uslublar yoki tillar bilan aniqlanadi. Ularni bir-biriga tegishli metodlar bilan o'rgansa bo'ladi va ular orasida sezilarli umumiyliklar bor.

Ilk falsafiy ta'limotlar qad. Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va Yunonistonda paydo bo'lgan, keyin G'arb mamlakatlariga yoyilgan. Qad. Hindistondagi falsafiy maktablar 2 turga bulinib, biri vedalaraxm kelib chiqqan va ularga suyanuvchi maktablar (vedanta, yoga, vaysheshika, nyaya, sankhya), ikkinchisi vedalarni rad etuvchi maktablar (jaynizm, buddizm, lokoyata) x, isoblanadi. Qad. Xitoydagi dastlabki falsafiy ta'limotlar miloddan avvalgi 7-asrda vujudga kelgan. U Qad. Xitoy yozma manbalarida uchraydi, bu manbalarga „Qo'shiqlar kitobi“, „Bahor va kuz“ kabi qad. yodgorliklar va Konfutsiynning „Aforizm“larini, daosizmni kiritish mumkin.

Markaziy osiyodagi eng qadimgi va ilk o'rta asrlarda falsafiy fikrlar rivoji.

XVI asrdan XX asr boshlarigacha O'zbekistondagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur.

Markaziy Osiyodagi eng qadimgi falsafiy qarashlar. Miloddan oldingi ming yilliklarda Vatanimiz hududida ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tafakkur rivoji. Qadimgi Xorazm, Sug'diyona, Afrosiyob, Sxosh madaniyati, uning milliy g'oya shakllanishidagi ahamiyati. "Avesto" va zardushtiylik g'oyalari. Avesto - mamlakatimiz sivilizatsiyasi va xalqlarimiz ijtimoiy fikri tarixining qadimgi namunasi. Zardushtiylikning olam, borliq va ruh, tabiat va odam

to'g'risidagi qarashlari. Avestodagi milliy g'oyalarning ifodalanishi va uning xalqlarimiz taraqqiyotidagi ta'siri.

Markaziy Osiyodagi buddaviylik. Buddaviylikning Kushon davrida yangi va ustivor yo'nalishlardan biriga aylanishi. Moniy falsafasi. Moniylik g'oyalarning tarqalishi. Mazdak g'oyalari. Mazdakiylikning tarqalishi, asosiy tamoyillari va qarashlari. Moniy va Mazdak ta'limotlarining tarixiy taqdiri va xalqlarimiz ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri.

O'rta asrlarda evropada falsafiy fikrlar taraqqiyotining asosiy husuiyatlari va yo'nalishlari.

#### O'rta asrlar g'arb falsafasi

Yevropa tarixida o'rta asrlar davri deyarli to'la ming yilni (Rim imperiyasining parchalanish lahzasidan Uyg'onish davrigacha) o'z ichiga oladi. O'rta asrlar yevropasi feodalizmning qaror topishi bilan belgilanadiki, u xristian dunyoqarashidan foydalandi. Ma'jusiylar dini va falsafasi, hamda bid'atchilarning adashishlariga qarshi kurashga apologetlar (yunoncha apologiya-himoya) deb atalgan qadimgi antik davrning keyingi xristian yozuvchilari bel bog'ladilar. Apologetlarning eng ko'zga ko'ringan vakili Kvint Tertullian (160-220) edi. Falsafa va xristianlikni bir biriga to'g'ri kelmasligiga dalillar keltirib, u shundan kelib chiqdiki, xristianlik falsafiy asosga ehtiyoji yuq. Isodan keyin hyech qanday bilimga qiziqishning keragi yo'q, Injildan keyin esa hyech qanday tadqiqotning zaruriyati yo'q. E'tiqodni oliy haqiqat sifatida tushunish falsafani ilohiyotga bo'ysundirish uchun asos bo'ldi.

Apologetika orqasidan xristian mafkurachilarining asarlari bo'lgan patristika paydo bo'ldiki, uning mualliflari bid'atchilarga qarshi kurashga katta hissa qo'shganliklari uchun avliyolik darajasiga ko'tarildilar va cherkov otalari deb ataldilar. «Cherkov otalari» ning eng yirigi Avreliy Avgustin (354-430) edi. Avgustin falsafasining markazida Xudo turadi. Xudo oliy mohiyat bo'lib, eng oliy ezgulikdir. Inson esa o'zida tabiatning moddiy jismlarini – o'simliklar va hayvonlarni birlashtiradi va aqliy ruh, hamda ozod irodaga egadir. Ruh xudoga yaqin bo'lib, moddiy emas, zavol topmaydi va o'z qarorlarida ozoddir. Ma'naviy hayotning asosi irodadir, ammo aql emas. Hayotning maqsadi va mazmuni baxt-saodatdadirki, unga Xudoni bilish bilan erishib bo'ladi. Insoniy va ilohiy tarix voqyealari birlik va qarama-qarshiliklar orqali ro'y beradi, ular o'z ifodasini ikki saltanat (shaharlar) - Xudoning va yerning to'qnashuvida topadilar. Xudo saltanatiga insoniyatning oz qismi, ya'ni o'zining axloqiy-diniy xulqi bilan Xudoning rahmatiga va najotiga erishganlar kirdilar, yerdagi saltanatga esa, baraks, o'zini yaxshi ko'radigan, ochko'z, xudbin kishilar kiradilarki, ular Xudoni unitadilar. Xudo saltanatiga mansublikning bosh garovi sifatida Xudo va cherkov oldida itoat va bo'ysunish xizmat qiladi.

#### RENOSANS DAVRI FALSAFASI

Uyg'onish davri (Renessans) — Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy (9-12 va 15-asrlar), G'arbiy Yevropada yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri. n "Renessans" atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma'naviy yuksalish (14—16-asrlar)ga nisbatan qo'llanilgan, uni o'rta asrchilik turg'unligidan yangi davrga o'tish bosqichi deb

baholaganlar. Renessansning asosiy alomatlari: tafakkurda va ilmu ijodda dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib o'tib, insonni ulug'lash (qarang Gumanizm), uning iste'dodi, aqliy fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish; antik davr (yunonrum) madaniyatiga qaytib, uni tiklash, boyitish; cherkov sxolastikasidan qutulib, adabiyot va san'atda dunyoviy go'zallik, hayot taronalarini qizg'in kuylash; inson erki, qurfi krilik uchun kurashish. Buning natijasi o'laroq, ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulug'vor badiiy asarlar, salobatli binolar yaratildi, ilmfan rivojlandi. Italiyada shoir Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkirlar Bokkachcho, Ariosto, Tasso, Byome Renessans g'oyalarning jarchilari bo'lib maydonga chiqsilar. Keyinchalik Mikelanjelo, Rafael, Shekspir, Servantes Yevropaning turli mamlakatlarida buni davom ettirdilar. Ammo Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o'rgangan olimlarning ishlari shuni ko'rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnaxr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9— 12-asrlar) ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilmfan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida "Musulmon Renessansi" (A. Mets) yoki "Sharq Uyg'onishi" (N. I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq Uyg'onish davrida Yevropa Uyg'onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo'shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilgani shundan dalolat beradi. Sharq Uyg'onish davri ham ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr ar Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al Farg'oni, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqiddi. She'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulalo alMaarriy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjavip, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o'lmas asarlar yaratdilar, ishqmuhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatyura rassomchiligida bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo'nalishga asos soldi. Uyg'onish davri ning yana bir belgisi xalq ruhini ifodalaydigan "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Qirq vazir", "To'tinoma", "Sindbodnoma", "Jome'ul hikoyot" kabi qiziqarli sarguzashtlarga to'la, shavqu zavq qo'zg'atadigan asarlarning ko'paygani, ikkinchi tomondan "Xamsa"larda bo'lganiday, insoniy ideallarni mujassam etgan hikmat va falsafaga boy umumbashariy g'oyalarning tasvirlanishidir.

Rumiy Jaloliddin (1207, Balx — 1273, Ko'nya) — shoir va mutafakkir. Tasavvufdagi mavlaviya tariqatining asoschisi. Arab, fors va turkiy tillarida ijod qilgan. Otasi Bahouddin Valad sufiylar va fiqh donishmandi bo'lgan. Shu bois ham sulton Muhammad Xorazmshoh (1199—1220) saroyga taklif etgan. Pekin Valad uning taklifini rad etib, maktabdorlik hamda ilmiyi-ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lgan. Xorazmshoh bilan

kelisholmagan Valad haj safari bahonasida oilasi bilan Balx shahrini tark etgan. Rumiya Makka yo'lida Fariddin Attor bilan uchrashgan. 1220-yil Rum sultoni Alouddin Kayqubod I ning da'vati bilan Ko'nya (Kichik Osiyo) ga kelgan. R. Halab, Damashq va Bag'dod madrasalarida o'qigan, mudarrislik qilgan.

Rumiya shaxsiyati kamolotida shoir va shayx Shams Tabriziyning o'rne katta. U 3 yil Rumiya dars beradi: falsafa, xususan, so'fiylik ta'limotini o'rgatadi. Shoirning o'zi ham bir baytida "Agar Attor menga ruh baxsh etgan bo'lsa, Shamsi Tabriziy tilsim kalitini tutqazdi", degan. 1244-yil R. ustozini nihoyatda hurmat qilgani uchun o'z g'azallarida "Shamsi Tabriziy", "Shamsi" taxalluslarini qo'llay boshlagan. Shoir g'azallarining "Shamsi Tabriziy devoni" nomi bilan shuhrat qozonishining boisi ham shunda [42 ming baytli "Devoni Kabir" ("Ulug' devon")ning ikkinchi nomi "Devoni Shamsi Tabriziy"].

Rumiyaning ijodi usmonli turk adabiyotining sarchashmasi hisoblanadi.

Rumiya dan she'rlar devoni, "Makotib", "Ichindagi ichindadir" ("Fihi mo fihi") hamda "Masnaviyi ma'naviy" kitoblari meros bo'lib qolgan. "Ichindagi ichindadir" nasriy asar bo'lib, olimning turli majlis va suhbatlardagi falsafiy nutklarining majmuasidir. "Makotib" esa, muallifning zamondoshlari va ustozlari bilan bo'lgan turli yozishmalari — maktublaridan iborat. Har 2 asarda muallifning ijtimoiy-falsafiy, axloqiyta'limiy mushohadalari, tasavvufga doir nazariy qarashlari o'z ifodasini topgan. Shoir devoni turli janrlardan iborat 25 ming baytdan ziyod she'rlarni o'z ichiga olgan.

Rumiya she'riyati, asosan, ilohiy ishq bilan bog'langan. U o'zining barcha asarlarida yeru ko'kning sohibi bo'lmish Alloh va uning zamindagi xalifasi hazrati insonni ulug'laydi. R.ning mashhur asari "Masnaviyi ma'naviy"dir. Asarda Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolarini o'ziga singdirgan, inson hayoti bilan bog'liq barcha masalalar badiiy yo'sinda bayon etilgan. 6 jild (daftar)dan iborat asarning dastlabki qismlarini adibning shogirdi Hisomiddin Chalabiy ustoziga og'zidan yozib olib, taxlildan o'tkazgan. Chalabiy vafotidan so'ng muallif asarning davomini 10 yilda yozib tugatadi. Qur'oni karim oyatlarining 70 foizi mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan, 270 dan ziyod hikoyalarni, yuzlab pandu hikmatlarni o'z ichiga olgan bu kitob o'z vaqtida va keyinchalik ham yozuvchi nomining dunyoga keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Chunki R. masnaviyda o'zigacha bo'lgan Sharqu G'arb donishmandlarining falsafiy qarashlarini, islomiy farzlarni sodda bir uslubda, she'riy yo'l bilan badiiy ifodalagan. Agar R. "Har ertalab bemorlar shifo tilab Iso alayhissalom eshigiga borishgani", "Lochinning o'rdaklarni sahroga chiqargani", "Zarvon ahli qissasi", "Majnun Layli ko'yida yurgan itni o'pib, erkalagani", "Bo'yoqchining xumiga tushgan shaqalning tovuslik da'vo etgani", "Xorut va Morut qissasi" singari qissa va hikoyalarda payg'ambarlar hayotidan turli mo'jizalar keltirib, islomiytasavvufiy g'oyalarni targ'ib etgan bo'lsa, boshqa turkum hikoyalarda bevosita insonning kundalik turmushi, ilm-ma'rifat kasb etishi, hunar o'rganish yo'lidagi riyozatlarini badiiy tasvirlab, chuqur falsafiy xulosa chiqarishga undagan.

Rumiya ijodi yuksak badiiyati bilangina emas, balki mantiq kuchi, falsafiy fikrlarga boyligi bilan ham katta ta'sir kuchiga ega. Uning tabiat va jamiyat hodisalarining doimiy

o'sish, o'zgarishda ekani, eskining yo'qolib, yangining paydo bo'lishi — "dunyoning ziddiyatlar birligidagi ziddiyatlar jangi"dan iboratligi to'g'risidagi qarashlari, nemis faylasufi Gegelning e'tiroficha, uning dialektik metodni yaratishiga yordam bergan.

Rumiy asarlari ko'pchilik forsigo'y va turkigo'y shoirlar ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan, masnaviyxonlik xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida R.ning "Masnaviyi ma'naviy" asari saqlanadi. Istikdol yillarida R. hayoti va ijodiga kiziqish yanada kuchaydi. Sh. Shomuhamedov, A. Mahkam va boshqa shoirning turli janrdagi she'rlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilishdi. Shoir Jamol Kamol "Masnaviyi ma'naviy" tarjimasini nihoyasiga yetkazdi, 6 kitobdan iborat bu yirik asarning 4 jildi bosilib chiqdi (2002, 2003). "Ichindagi ichindadir" asari ham o'zbek o'quvchilarining ma'naviy mulkiga aylangan.

- Jaloliddin Rumiy, T., 1986; Jumayev R., Mavlono Jaloliddin Rumiy, T., 2003.  
Hamidjon Homidov, Ergash Ochilov.

Nazira G'ULOMOVA

"Ona tili va adabiyot" ("Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2014) darsligidan.

#### **INTERNET MA'LUMOTLARI VA SAYTLARI :**

1. [www.wikipediya.uz](http://www.wikipediya.uz)
2. [www.ziyonur.uz](http://www.ziyonur.uz)